

YURIDIK SOHADAGI XALQARO HAMKORLIKNING YANGI SHAKLLARI

Islomova Iroda Erkin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura va sirtqi ta'lim yo'nalishi,
Ommaviy axborot vositalar huquqi talabasi.

Email: azizaislomova7574@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14193805>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuridik sohadagi xalqaro hamkorlikning yangi shakllari tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonida davlatlar o'rta sidagi huquqiy aloqalarni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni huquqiy sohalarda joriy etish, ekologik muammolarni birgalikda hal qilish, inson huquqlarini himoya qilish va jinoyatchilikka qarshi kurash kabi masalalar yoritilgan.

Maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy hamkorlik borasidagi yondashuvlari, milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga moslashtirilishi va raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan innovatsion ishlanmalar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, xalqaro ta'lim dasturlari va ilmiy hamkorlikning ahamiyati, ekologik huquq, kiberxavfsizlik kabi dolzarb sohalarda olib borilayotgan ishlar tahlil qilingan. Maqola yuridik sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: xalqaro hamkorlik, globallashuv, raqamli texnologiyalar, huquqiy innovatsiyalar, ekologik huquq, kiberxavfsizlik, xalqaro shartnomalar.

NEW FORMS OF INTERNATIONAL COOPERATION IN THE LEGAL FIELD

Abstract. This article analyzes new forms of international cooperation in the legal field. In the process of globalization, issues such as the development of legal relations between countries, the introduction of modern technologies in the legal sphere, the joint solution of environmental problems, the protection of human rights and the fight against crime have been highlighted. The article provides detailed information about the approaches of the Republic of Uzbekistan to international legal cooperation, adaptation of national legislation to international standards, and innovative developments based on digital technologies. Also, the importance of international educational programs and scientific cooperation, environmental law, cyber security, etc., are analyzed. The article includes recommendations aimed at the development of international cooperation in the legal field.

Key words: international cooperation, globalization, digital technologies, legal innovations, environmental law, cyber security, international agreements.

НОВЫЕ ФОРМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ПРАВОВОЙ СФЕРЕ

Аннотация. В данной статье анализируются новые формы международного сотрудничества в правовой сфере. В процессе глобализации выдвинулись на первый план такие вопросы, как развитие правовых отношений между странами, внедрение современных технологий в правовую сферу, совместное решение экологических проблем, защита прав человека и борьба с преступностью. В статье представлена подробная информация о подходах Республики Узбекистан к международно-правовому сотрудничеству, адаптации национального законодательства к международным стандартам, инновационным разработкам на основе цифровых технологий. Также анализируется важность международных образовательных программ и научного сотрудничества, экологического права, кибербезопасности и т.д. В статью включены рекомендации, направленные на развитие международного сотрудничества в правовой сфере.

Ключевые слова: международное сотрудничество, глобализация, цифровые технологии, правовые инновации, экологическое право, кибербезопасность, международные соглашения.

Kirish

Globallashuv jarayonlari dunyo mamlakatlari o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi. Xalqaro hamkorlikning kengayishi turli sohalarda, xususan, yuridik sohada ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yuridik sohada xalqaro hamkorlik davlatlar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va jinoyatchilikka qarshi kurash kabi ko‘plab masalalarini hal qilishda muhim o‘rin tutadi. Bu hamkorlik davlatlarning huquqiy tizimlarini zamonaviy talablarga moslashtirishga va xalqaro huquqiy me’yorlarni milliy qonunchilikka tatbiq etishga yordam beradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni o‘zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilab kelmoqda. O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan huquqiy aloqalarni mustahkamlash orqali o‘zining huquqiy tizimini isloh qilish, global xavfsizlikni ta’minlash va barqaror taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashga intilmoqda. Bunda mamlakatning xalqaro huquqiy me’yorlarga rioya qilishi va xalqaro shartnomalardagi majburiyatlarini bajarishi asosiy mezon hisoblanadi.

Yuridik sohadagi xalqaro hamkorlikning yangi shakllari nafaqat huquqiy masalalarni hal qilishda, balki raqamli texnologiyalarni joriy qilish, kiberxavfsizlikni ta’minlash, ekologik

muammolarni birgalikda hal etish va xalqaro tajribani o‘zlashtirishda ham katta imkoniyatlarni taqdim etadi. O‘zbekistonda elektron hukumat tizimlari, blokcheyn texnologiyalari va sun’iy intellektni huquqiy sohalarda qo‘llash orqali xalqaro hamkorlik yangi bosqichga chiqmoqda.

Shu bilan birga, yuridik sohada xalqaro hamkorlik inson huquqlari, savdo munosabatlari va jinoyatchilikka qarshi kurash kabi sohalarda global masalalarni hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro nizolarni hal qilishda milliy manfaatlarni himoya qilish imkonini beradi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonning yuridik sohadagi xalqaro hamkorligi, uning yangi shakllari va zamonaviy muammolarni hal qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, ta’lim va ilmiy hamkorlik, xalqaro shartnomalar asosida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning istiqbollari haqida batafsil yoritiladi.

Yuridik sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bugungi globallashuv sharoitida dolzARB masala bo‘lib, u davlatlar o‘rtasida o‘zaro huquqiy aloqalarni mustahkamlash, xalqaro nizolarni hal qilish va zamonaviy huquqiy muammolarga birgalikda yechim topishda muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida tobora izchil ishtirok etmoqda. Xususan, joriy yilning o‘zida nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo uchun birinchi marta mamlakatimiz vakili BMTning muhim va nufuzli organi — Inson huquqlari qo‘mitasiga 2025-2028 yillar uchun saylandi. Shuningdek, O‘zbekiston 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOS) va Xalqaro mehnat tashkiloti Ma’muriy kengashi a’zosi bo‘ldi.

O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan asosiy xalqaro tashkilot bilan hamkorlikka katta ahamiyat qaratadi. Davlatimiz BMT Ustavi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro shartnomalardagi maqsad va prinsiplarga sodiq bo‘lib, o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni og‘ishmay bajarib kelmoqda.

BMTning teng huquqli va to‘laqonli a’zosi sifatida O‘zbekiston tenglik, hamkorlik, ko‘ptomonlamalik va xalqaro siyosiy tizimni himoya qilish prinsiplariga so‘zsiz amal qilishini namoyish etmoqda. So‘nggi vaqtarda xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, yangi global qurolli to‘qnashuvlarning oldini olish, mamlakatlar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, global muloqot, global harakatlar va butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish kabi g‘oyalarni faol ilgari surmoqda.

Mamlakatimiz BMTning teng huquqli a'zosi sifatida uning maqsad va vakolatlariiga qat'iy roya etadi. O'zbekiston o'z ovozi va maqomidan foydalanib, BMT faoliyatining barcha sohalariga doir o'ta muhim va dolzarb tashabbuslarni ilgari suradi.¹

O'zbekistonning xalqaro huquqiy hamkorligi asoslari

O'zbekistonning xalqaro huquqiy hamkorligining huquqiy asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi" deya ta'kidlab o'tilgan. Yuqorida keltirib o'tilgan modda orqali biz O'zbekiston Respublikasining Xalqaro huquqiy hamkorlikni hech qanday istisnosiz amalga oshirish isbotini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi" deb keltirib o'tilgan. Shuningdek, Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi va O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi keltirib o'tilgan.²

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 8-sentyabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishi sifatida shni tashkil etishning xalqaro amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan, shu jumladan, sifat

¹ <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m13512>;

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi., <https://lex.uz/docs/-6445145>;

menejmenti, indikativ rejalashtirish, autsorsing, kraudsorsing kabi zamonaviy uslublaridan foydalanish³ kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Xalqaro hamkorlikning yangi shakllari

Xalqaro hamkorlikning yangi shakllarini avvalo yuridik ta'lim sohasidan boshlash o'rini va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini faollashtirish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yuridik kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) amalga oshirish, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalg qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shunindek, TDYUda Nagoya universiteti (Yaponiya) bilan hamkorlikda tashkil etilgan yapon tili va huquqi haqidagi bilimlarga ega malakali yuridik kadrlarni tayyorlash, akademik almashinuv va qo'shma ilmiy huquqiy tadqiqotlarni o'tkazishga ko'maklashuvchi Yapon huquqini o'rganish markazi faoliyat yuritayotganligini yaqqol da'lil sifatida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi, Notarial palata va boshqa manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda advokatlar, notariuslar, FHDY organlari xodimlari, yuriskonsultlar va boshqa xodimlar malakasini oshirish tizimini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda takomillashtirish bo'yicha hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish⁴ asosiy chorallardan biri sifatida amalga oshirilib kelinmoqda.

Bundan tashqari, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari vaqonuniy manfaa tlarini himoya qilishda davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini rivojlantirish masalalari yuzasidan ham bir qancha hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek, bu sohada turli rivojlangan davlatlar bilan fuqarolarga xizmat ko'rsatishning ekeltron shakllaridan ham keng foydalanilmoqda.

Ammo aholiga davlat xizmatlarini qulay va oson shakllarda ko'rsatish ko'lамини oshirish va fuqarolarning idorama-idora sarson bo'lib yurishining oldini olish, davlat organlari axborot tizimida mavjud ma'lumotlarni ishonchli himoya qilish bo'yicha ishlarni izhil davom ettirilmoqda. Ammo amalga oshirilgan chora-tadbirlar va erishilgan yutuqlarga qaramasdan davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida foydalanilmagan imkoniyatlar va hal etilmagan muammolar

³ Murod o'g'li, I. S. (2024). 2017-2021 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IJROIYA HOKIMIYATIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(28), 261-268;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, <https://lex.uz/mact/-4802181>;

saqlanib qolmoqda. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, ko'pchilik davlat xizmatlari markazlari hanuzgacha yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulanmaganligi idoralararo elektron hamkorlikning zarur darajada yo'lga qo'yilmasligiga sabab bo'lmoqda. Ushbu jiddiy muammolarni bartaraf etish uchun Agentlik, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va "O'zbektelekom" AJ rahbarlari ta'sirchan choralar ko'rmayapti.⁵

Hozirgi paytda raqamli texnologiyalar yuridik sohada xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. O'zbekistonda Elektron hukumat tizimi orqali xalqaro shartnomalarni monitoring qilish va huquqiy axborot almashish samaradorligini oshirish yo'lga qo'yilgan.

Huquqiy hamkorlikni davlatlar bilan misol tariqasida ko'radigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qatar Davlati Hukumati o'rtasida "Huquqiy sohada hamkorlik qilish to'g'risida"gi bitimida " tomonlar har ikki davlat qonun hujjatlari hamda ularni qo'llash bilan bog'liq turli muammolar va masalalar bo'yicha simpoziumlar, konferensiylar va qo'shma kurslarni tashkil qilish va o'tkazishni qo'llab-quvvatlaydilar. Tomonlar o'zлari tashkil qilishni rejalashtirgan simpoziumlar va ilmiy konferensiylar hamda ularda ishtirot etish uchun tegishli taklifnama yuborish to'g'risida bir-birini o'z vaqtida xabardor qiladilar. Har bir Tomon, shuningdek boshqa Tomonni ko'rsatib o'tilgan tadbirlar davomida qabul qilingan zarur xulosalar va tavsiyalar bilan ta'minlaydi" deya keltirib o'tilgan.

Ushbu bitimda tomonlar mazkur hamkorlikni quyidagi moliyaviy shartlar asosida amalga oshirilishini belgilaydilar: Tomonlardan birining hududida bo'lish (joylashish, ovqatlanish, tibbiy xizmat, zarur bo'lganda tarjimon xizmati, shuningdek kelishilgan dastur bo'yicha madaniy tadbirlar) xarajatlari davlatda bo'lish bo'yicha kelishilgan muddatda qabul qiluvchi Tomon tarafidan to'lanadi. Jo'natuvchi tomon tadbirlarni o'tkazish joyigacha borish va orqaga qaytish bo'yicha xarajatlarni to'laydi. Delegatsiya yoki ekspertlarning va boshqa shaxslarning boshqa Tomon davlatida har bir alohida holatda kelishilganidan ortiq muddatda bo'lishi bo'yicha xarajatlar tomonlar o'rtasida oldindan kelishiladi.

Shuningdek, tomonlar yuristlar malakasini oshirish sohasida o'zaro ekspertlar almashish va Tomonlardan har biri tashkil qiladigan kurslar va seminarlarda ishtirot etish yo'li bilan hamkorlik qiladilar⁶ deya keltirib o'tilgan.

Huquqiy islohotlar va xalqaro integratsiya

⁵ Matkarimova, M. (2023). FUQAROLARNING HUQUQLARI, ERKINLIKHLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMoya QILISHDA DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISHNING MILLIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(6 Part 5), 48-53.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qatar Davlati Hukumati o'rtasida "Huquqiy sohada hamkorlik qilish to'g'risida"gi bitimi, <https://lex.uz/docs/-1985197>;

Huquqiy islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi orqali ham keng ko’lamda amalga oshirib, xalqaro-huquqiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish; ortiqcha ma’muriy tartib-taomillarni bartaraf etish hisobiga davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirish, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish; davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy axborotdan keng ko’lamda foydalanishini ta’minlaydi, ularning fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish; ma’muriy tartib-taomillarni amalga oshirishdagi huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish, shuningdek, sohada innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish hamda idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish choralarni amalga oshirish; ortiqcha ma’muriy tartib-taomillarni bartaraf etish hisobiga davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirish, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish; xalqaro arbitraj va sud muhokamalari masalalari bo‘yicha xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlарining huquqiy himoyasini ta’minlashda Tashqi ishlar vazirligi hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan idoralararo hamkorlikni amalga oshirish; o‘z vazifa va funksiyalari doirasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, xorijiy davlatlar organlari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatish va hamkorlik olib borish, xalqaro shartnomalarni tuzish yuzasidan takliflar kiritish kabi vazifalar yuklangan.

Xulosa

Yuridik sohadagi xalqaro hamkorlik bugungi global dunyoning ajralmas qismiga aylangan.

Davlatlar o‘zaro hamkorlik orqali xalqaro huquqiy me’yorlarni shakllantirish, huquqiy tizimlarini modernizatsiya qilish va global muammolarni birligida hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida xalqaro huquqiy hamkorlik milliy qonunchilikni rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim o‘rin tutadi. Elektron hukumat tizimlari, sun’iy intellekt, va raqamli texnologiyalarning yuridik sohalarda qo‘llanilishi bu hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, shartnomalar va ta’lim dasturlari asosida tajriba almashish va yangi yondashuvlarni joriy etish orqali O‘zbekiston o‘zining huquqiy tizimini mustahkamlashda davom etmoqda. Xalqaro huquqiy hamkorlik nafaqat milliy manfaatlarni himoya qilish, balki global xavfsizlikni ta’minlash, ekologik muammolarni hal etish va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Maqola yakunida shuni ta’kidlash lozimki, yuridik sohada xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun milliy qonunchilikning moslashuvchanligini oshirish, xalqaro ekspertlar bilan faol hamkorlik qilish va raqamli infratuzilmani mustahkamlash dolzarb masalalar hisoblanadi.

Shu bilan birga, davlatning xalqaro huquqiy me'yorlarga sodiqligi va milliy qonunchilikning jahon standartlariga uyg'unlashtirilishi bu yo'nalishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m13512>;
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi., <https://lex.uz/docs/-6445145>;
3. Murod o'g'li, I. S. (2024). 2017-2021 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IJROIYA HOKIMIYATIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(28), 261-268;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni., <https://lex.uz/mact/-4802181>;
5. Matkarimova, M. (2023). FUQAROLARNING HUQUQLARI, ERKINLIKHLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISHDA DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISHNING MILLIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(6 Part 5), 48-53.
6. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qatar Davlati Hukumati o'rtaсида "Huquqiy sohada hamkorlik qilish to'g'risida"gi bitimi., <https://lex.uz/docs/-1985197>;